



## XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 27-dekabr

II-5-023-14-220-K/24

Yangihayot tumani

### **Yangihayot tumanida 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qo'llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasining "Soliq va budget siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish to'g'risida" 2024-yil 24-dekabrda O'RQ-1014-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 20-dekabrda PF-223-son farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, shuningdek, tuman soliq inspeksiyasi boshlig'i J.Ergashovning 2025-yilda tumanida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari bo'yicha (sementdan tashqari) soliqning qat'iy belgilangan stavkalariga qo'llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorini qo'llash yuzasidan bildirgan takliflarini inobatga olib, soliq yo'nalishidagi faoliyatni samarali tashkil etish maqsadida, xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Soliq va budget siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish to'g'risida" 2024-yil 24-dekabrda O'RQ-1014-son Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 20-dekabrda PF-223-son farmoni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Soliq kodeksiga kiritilayotgan o'zgartirish va

qo'shimchalarni hisobga olib, Yangihayot tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari bo'yicha (sementdan tashqari) soliqning qat'iy belgilangan stavkalariga qo'llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar yuzasidan kiritgan taklifi ma'qullansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 27-moddasi va Soliq kodeksiga asosan "Yangihayot tumanida 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qo'llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaror loyihasi jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish uchun 2025-yil 10-dekabrda ID:134059-son bilan 15-kun muddatga Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali "regulation.gov.uz" elektron tizimiga joylashtirilganligi inobatga olinsin.

4. Xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashiga mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagicha tasdiqlash tavsiya qilinsin:

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 1-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari bo'yicha (sementdan tashqari) soliqning qat'iy belgilangan stavkalariga qo'llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Yangihayot tumani Soliq inspeksiyasi (J.Ergashev)ga ushbu qarorni sifatli darajada ijrosini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

6. Yangihayot tuman Soliq inspeksiyasi tomonidan budget daromadlari ko'rsatkichlarining bajarilishini ta'minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda tumanning iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan har chorak yakuni bo'yicha xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashiga hisobot kiritilishi ta'minlansin.

7. Tuman hokimining Matbuot kotibi — axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi (M.Abdushukurova) va tuman Soliq inspeksiyasi(J.Ergashev)ga:

mazkur qarordan kelib chiqqan holda, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari bo'yicha (sementdan tashqari) soliqning qat'iy belgilangan stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishi hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi ta'minlansin.

8. Mazkur qaror e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

9. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (S.Vafayev) va tuman hokimining birinchi o'rinbosari (A.Maxmudov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



INOGAMOV XAYOT  
ILYASOVICH

Xalq deputatlari Yangihayot tumani  
Kengashining  
2024-yil 27-dekabrdagi  
II-5-023-14-220-K/24 -son qaroriga  
1-ilova

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga  
qo'llaniladigan koeffitsiyentlar**

T/r	Sohalar	Yer usti suv manbalari			Yer osti suv manbalari		
		2025-yil uchun soliq stavkasi (1 kub metr uchun)	Taklif etilayotgan koeffitsient (0,7 dan 1,5 gacha)	Soliq stavkasi (1 kub metr uchun)	2025-yil uchun soliq stavkasi (1 kub metr uchun)	Taklif etilayotgan koeffitsient (0,7 dan 1,5 gacha)	Soliq stavkasi (1 kub metr uchun)
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan 2-bandda ko'rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar	700,0	1	700,0	850,0	1	850,0
2	Elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	110,0	1	110,0	135,0	1	135,0
3	Qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish va baliqlarni yetishtirish (o'stirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo'jaliklari va qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar	100,0	1	100,0	100,0	1	100,0
4	Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	15 000,0	1	15 000,0	15 000,0	1	15 000,0
5	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	38 000,0	1	38 000,0	38 000,0	1	38 000,0



Xalq deputatlari Yangihayot tumani  
Kengashining  
2024-yil 27-dekabrda  
II-5-023-14-220-K/24 -son qaroriga  
2-ilova

**Noruda qurilish materiallari bo'yicha (sementdan tashqari) soliqning  
qat'iy belgilangan stavkalariga qo'llaniladigan  
koeffitsiyentlar**

<b>T/r</b>	<b>Noruda qurilish materiallari nomi</b>	<b>2025-yil uchun soliq stavkasi (1 kub metr uchun so'mda)</b>	<b>Taklif etilayotgan koeffitsent</b>	<b>Soliq stavkasi (1 kub metr uchun so'mda)</b>
1	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfirritlar, diabaz-porfirritlar, gabbro, slanets jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	6 160,0	1,1	6 776,0
2	Qum-shag'al aralashmasi ( <i>qum-shag'alning karerdagi realizatsiya minimal miqdori bir metr kubi uchun 20 ming so'm</i> )	5 000,0	1,1	5 500,0
3	G'isht-cherepitsa hom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar, qurilish qumi, qumtoshlar	4 620,0	1,1	5 082,0
4	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	15 950,0	1,1	17 545,0
5	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	10 000,0	1,1	11 000,0
6	Marmar	20 000,0	1,1	22 000,0
7	Granitlar	30 000,0	1,1	33 000,0